

**OCHIL TOHIR**

ROSTGO'Y

BOLA

Ochil Tohir  
**Rostgo‘y bola**

«SHARQ»

## **Tohir O.**

Rostgo‘y bola / O. Tohir — «SHARQ»,

Shoir Ochil Tohirning «Qarz», «Sog‘inch sohili», «Ko‘nglim bilan suhbat», «Shaklsiz olam» singari kattalarga bag‘ishlangan she‘riy kitoblari hamda bolajonlarga bag‘ishlangan «Sirli shaxmat», «G‘olib xo‘roz» dostonlari, shuningdek, «Maqtanchoq mushuk» she‘riy guldastasi nashr etilgan. Ushbu yangi tuhfa – «Rostgo‘y bola» she‘riy to‘plami ham siz – jajji o‘quvchilarga manzur bo‘ladi degan umiddamiz.

© Tohir O.

© SHARQ

## Содержание

ODOBLI BOLA	5
OYPOSHSHA	7
ARAZCHI QIZ	8
BILAG'ON DAVRON	9
SUHBAT	10
BAYRAM QO'SHIG'I	11
MASALGA NAZIRA	12
TULKINING SO'ZI	13
Конец ознакомительного фрагмента.	15

# Ochil Tohir Rostgo‘y bola

## ODOBLI BOLA

Bobojonim, bobojon,  
Sizni yaxshi ko‘raman.  
Oldingizda doim men  
Odob saqlab turaman.

Chaqirsangiz, labbay deb,  
Qarshingizga yelaman.  
Shirin konfetlar berib,  
Erkalaysiz, bilaman.

Buyursangiz biron ish,  
Men yalqovlik qilmayman.  
Og‘rir boshim yoki tish,  
Deb bahona qilmayman.




## OYPOSHSHA

– Oyi, – dedi Oyposhsha,  
Ushladim, mana, pashsha,  
Shundan fil yasab bering,  
Qilay men bir tomosha.

– Sendan aylanay o'zim,  
Bu mumkin emas, qizim,  
Buni eplolmas odam,  
Bu – onalik chin so'zim.

– Xo'sh, unda nega har dam,  
Tushunmayman sira ham,  
Pashshadan fil yasaydi,  
Deydilar sizni dadam.



## ARAZCHI QIZ

Buvijonim har doim  
Boqib menga muloyim,  
Ohista sochim silab,  
Derlar meni erkalab:

– Sen asal-novvot, qizim,  
Ko'nglimga quvvat qizim.  
Osmondagi yulduzim,  
Oppoq, yorug' kunduzim.

Bog'imda gul-g'unchamsan,  
Mening shirmoy kulchamsan.  
Rostmi, deb buvim so'zi,  
Oldimga qo'yib ko'zgu.

Uzoq boqib turdim men,  
U yoq, bu yoq yurdim men.  
Undan uzmay ko'zimni,  
Kuzatdim men o'zimni.

Buvim sanab, birma-bir  
Aytganin topmay axir,  
O'pkalab men oynadan,  
Chiqib ketdim xonadan.

## BILAG'ON DAVRON

Qafasdagi maymunga  
Yaqinroq borib Davron,  
Tikilib turar unga,  
Bo'lganicha lol-hayron.

Der: Boshdan-oyoq o'zin  
Bo'yabdi qizil rangga.  
Zo'rg'a ilg'aysiz ko'zin,  
G'alati-ya, qarang-a...

Oyisi deydi mayin:  
– Boshqa maymun do'stini  
Qo'rqitay, deb atayin  
Bo'yagan-da o'zini.

O'yga cho'mdi Davronjon,  
Der: Tushundim so'zingiz,  
Qo'rqitay deb dadamni  
Bo'yarkansiz yuzingiz.

## SUHBAT

– Bolam, gaplaringa quloq os,  
Odotsizlik qilmasang buncha.  
Astagina menga aytsang bas,  
Tiling bor-ku!  
Qo'ling cho'zguncha.

– Oyi, aslo emasman tixir,  
Uzatishga majburman qo'lim.  
Vazadagi mevaga axir,  
Nima qilay, yetmasa tilim?

## **BAYRAM QO'SHIG'I**

Yoshlik – bu misli bahor,  
Atrofda gul, ranggo-rang.  
Quvonchdan dillar yayrar,  
Jo'r bo'lib qo'shiq, ohang.

Bu davradan zavq olib,  
Qalblar toshar sururdan.  
Do'stlik doimo g'olib,  
Ko'ksimiz to'lar g'ururdan.

## MASALGA NAZIRA

Baroqvoy bolasiga  
Qilarkan pand-nasihat.  
It degan balosidan  
Uzoq yurgin, der faqat.

Uning bizlardan boshqa  
Qiladigan ishi yo'q.  
Doim balodir boshga,  
Hayt, deydigan kishi yo'q.

Rostini aytsam, bolam,  
It emas, xira pashsha.  
Itlar qavmi shu mudom,  
Ishi «quv-qoch» hamisha.

To'g'risi, aynir ko'nglim,  
Gar eshitsam otini.  
Uzun bo'lsaydi qo'lim,  
Quritardim zotini.

## TULKINING SO'ZI



Nomimdir ayyor tulki,  
Mug'ombirligim shulki,  
Asrash uchun jonimni,  
To'q tutmayman qornimni.  
Bilaman, hayvon borki,  
Bir-biridan ko'p farqi.  
Biri ojiz, biri zo'r,  
Biri to'q, biri bazo'r  
Kun ko'rar, bunga sabab –  
Yurmas holiga qarab.  
Ko'rsa shudgorda quyruq,  
Nafs berar unga buyruq.  
Deyman, bo'l o'zdan hazir,  
Ammo gap qilmas ta'sir.



O'rmon, to'qay sultoni  
Sherning uzundir qo'li,  
Aytsam gapning dangalin,  
Bo'lolmas ammo tulki.  
Yo'lda ko'p tuzoq-qopqon

## **Конец ознакомительного фрагмента.**

Текст предоставлен ООО «ЛитРес».

Прочитайте эту книгу целиком, [купив полную легальную версию](#) на ЛитРес.

Безопасно оплатить книгу можно банковской картой Visa, MasterCard, Maestro, со счета мобильного телефона, с платежного терминала, в салоне МТС или Связной, через PayPal, WebMoney, Яндекс.Деньги, QIWI Кошелек, бонусными картами или другим удобным Вам способом.